

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA | 2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427
journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinnbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.n., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva , f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n.,dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyat fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106сонли guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-fevraldagii kengaytirilgan 2-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 2). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023

Литература

1. Абашева М. Чистенькая жизнь не помнящих зла // Литературное обозрение. 1992. N 5-6. - С. 9.
2. Басинский П. Позабывшие добро? Заметки на полях «новой женской прозы» // Литературная газета. 1991. № 7. - С.10.
3. Габриэлян Н. Ева — это значит «жизнь» (Проблема пространства в современной русской женской прозе) // Вопросы литературы. 1996. № 4. - С. 31.
4. Лекманов О. А. Книга об акмеизме и другие работы / О.А. Лекманов. – Томск: Водолей, 2000. – С.34
5. «Не помнящая зла»: Новая женская проза. Составитель Л. Л. Ванеева. М., 1990. - С.3.
6. Слюсарева И. Оправдание житейского: Ирина Слюсарева представляет «новую женскую прозу» // Знамя. 1961. № 11. - С.238-240.
7. Khabibullaeva, F. K. (2020), —The hermeneutic approach to text analysis in the process of literary translation (on the example of Russian translations of the novel by A. Qodiriy —Bygone Days||), Research Result. Social Studies and Humanities, 6 (3), 16-27, DOI: 10.18413/2408-932X-2020-6-3-0-2

O`TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARIDA SOMATIK BIRIKMALARINING SEMANTIK TAHLILI

Gadoyeva M.I. BuxDU dotsenti, Murodova E'tibor BuxDU,
2-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola O`tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida qo'llanilgan somatizmlarning ma`nosini tahlil qilishga qaratilgan bo`lib, shu asar doirasida somatik birikmalarining aynan asar ichida qanday mazmunda kelganini ifodalab beradi. Bundan tashqari maqola somatizmlarning turlari, ularning tilshunoslikda qo'llanilishi va tarkib topish usullarini muhokama qilishga qaratilgan bo`lib, ularning muhimlik darajasini asoslab beradi.

Kalit so`zlar: somatik birikmalar, somatizmlar, somatik elementlar, semantik ma`no, so`z birikmalari, atamalar.

SEMANTIC ANALYSIS OF SOMATIC COMBINATIONS IN UTKIR HOSHIMOV'S "BETWEEN TWO DOORS".

Abstract. This article is aimed to analyze the meaning of somatisms which are used in Utkir Hoshimov's work "Between Two Doors". Furthermore, it expresses the meaning of somatic units within the framework of this work. In addition, the article discusses the types of somatisms and their use in linguistics. Of course, the importance of somatic phraseological units is also highlighted with the clear examples in the process of discussion.

Key words: somatic combinations, somatisms, somatic elements, semantic meaning, phrases, terms.

Kirish

Somatizmlar frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biri hisoblanib, shu bilan birgalikda eng kattasi ham hisoblanadi. Ularning miqdoridan qat'iy nazar, ulardan kelib

chiqadigan tasvirlarning konseptuallashtirishdagi rolimiz va tajribamiz lingvistik qiziqishlarni oshiradi va yanada ko`proq inson tanasi nafaqat jismoniy balki, lisoniy ma`noladagi so`zlarni ham yarata olishiga guvoh bo`lamiz.

Somatizmlarning umumiy va keng qamrovli nazariyasiga kelsak, somatemalar tasvirlar tipologiyasiga ko`ra tartibli shakllanishning turli darajalarini o`z ichiga oladi. Masalan, agar somatizm inson tanasining pastki a`zolaridan, oyog`idan, tizzasidan yasalgan bo`lsa, birikmalarning ham ma`nosi shunga yaqin pastroq tushunchani bildiradi. Agar bosh bilan ifodalanadigan bo`lsa, unda ma`noliq tushunchalarni yasasa bo`ladi. Bundan tashqari, somatemalar ko`pincha metonimik tarzda ishlatalishi mumkin. Ya`ni, bir qism butun bir tanaga tegishli bo`lishi mumkin yoki aksincha, butun bir tana bilan, bir tana a`zosini tushunish mumkin. Bu albatta tahlil qilinayotganda yoki konteksti ichida ma`nosi aniqlashtirilayotganda yuzaga chiqadi. Ko`pgina holatlarda somatizmlar funksiyalari xilma-xilligi tufayli metaforaga xos bo`ladi. Bunday hollarda somatik birikmalar tananing bosh, qo'l va og'iz kabi qismlarini o`z ichiga oladi va ularning variantlarini rivojlantiradi. Ma`no sohalarini ifodalovchi “bosh” bilan bog`liq bo`lgan somatizmlar fikrni, o`ylovni, aqlni bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

“Somatizm” termini tilshunoslikda birinchi marta uyg`ur-fin tillari tadqiqotchisi F.Vak tomondan inson tana a`zolari ishtiroy etgan eston tili frazeologizmlarini nomlashda qo`llagan. Somatizmlar eston tili frazeologizmlari tarkibidagi qadimiy leksik birlklardir, deya qayd etadi olim. Shu orqali “somatologiya” so`zi ham tilshunoslikda paydo bo`ladi.

F.Vak somatizmlarga qiziqqa boshlagan va tadqiq qila boshlagan birinchi tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U barcha somatizmlarni uch guruhga ajratdi:

1. shaxsni tavsiflash;
2. odamlar va hayvonlarni tasvirlash;
3. hayvonlarni tasvirlash.

Somatologiya - antropologiyaning inson tanasi va uning qismlari shakli, o'lchami va vazni o`zgarishini o`rganadigan bo`limi hisoblanadi. U butun somatik frazeologizmlarni uch guruhga: faqat odamlarni tasvirlaydigan, odamlar va hayvonlarni tasvirlaydigan, faqat hayvonlarni tasvirlaydigan iboralarga ajratdi. Keyingi yillarda somatik frazeologizmlar qiyosiy usulda va turli tizimdagи tillar bilan o`rganildi. Bu o'rinda Y.Dolgopolov (rus, ingliz va nemis tillarida somatik frazeologizmlar), M.Abilgaliyeva (qozoq va nemis tillarida somatik frazeologizmlar), D.Saypullayeva (turkman va ingliz tillarida somatik frazeologizmlar) kabi olimlarning bu sohadagi tadqiqotlarida muhim natijalar qo`lga kiritildi.

Somatizmlar O.Jespersen, G.Xoyer, J.Lyons, D.Bazarova kabi tilshunos olimlarning asarlarida ham ko`rib chiqiladi. Rus, ingliz va nemis tillari somatizmlarini qiyoslagan Dolgopolov, O. Nazarov (rus va turkman tillari somatizmlarini taqqoslash), M. Abilgaliyeva (qozoq va nemis tillari somatizmlari) alohida e'tiborga loyiqidir. D.Bazarova turkiy tillar somatizmlarini qiyoslashga bag`ishlangan bir qancha ishlar olib bordi.

O`zbek tilining somatizmlari A.Isaevning “O`zbek tilining somatik frazeologik birliklari” asarida ham o`rganilgan. Bu asarda somatizmlarning tildagi sinonimiysi, antonimiysi, omonimiysi va kommunikativ funksiyasi nuqtai nazaridan o`rganildi. Shuningdek, tatar, turkman va ozarbayjon tillari materiallari bo'yicha “bosh”, “ko`z” komponentlari ishtiroyidagi frazeologik birlklarni qiyosiy tahlil qildi.

METODOLOGIYA

Ilmiy maqolani yozishda kontekstual tahlil usulidan asosiy metod sifatida foydalanildi. Chinki asar ichidan tanlab olingan parchalar aynan asarning mazmuniga mos tarzda, asar ichida holatni tasvirlagan holda tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama

Ushbu bo'limda O'tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o'rinnlardan birini egallagan "Ikki eshik orasi" romani haqida so'z boradi. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlangani, tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani, uning g'ayriinsoniy mohiyatiga urg'u berilgani, urush voqealarining har bir ota-onas qalbini jarohatlagani, ko'ngillarga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etishi haqidagi fikr-mulohazalar ishning mohiyatini tashkil etadi. Yozuvchi yaratgan obrazlarining mardlik, matonat, insonparvarlik va sabr-bardoshlilik fazilatlari orqali millatning ruhiy takomilini ochishga muvaffaq bo'lgani haqida so'z yuritilgan.

O'tkir Hoshimov o'zining durdona asari "Ikki eshik orasi"da somatizmlardan mohirona tarzda foydalangan. Bu asar urush davrida front ortida ro'y bergan hodisalarini boricha tasvirlaydigan asardir. Uni o'qir ekanmiz urush nafaqat insonlarning hayotiga, va hattoki, fikrlashiga ham salbiy ta'sir ko'rsatganiga guvoh bo'lamiz.

Yozuvchi asarda somatizmlarning bir qancha turlaridan foydalangan. Insonning tana a`zolaridan "qo'l", "oyoq", "ko'z", "yurak", "bosh", "yuz" va "bel" kabi komponentlar bilan tuzilgan somatik birikmalar ishtirokida asarning mazmuniy jihatini oshirib bergan. Ba'zi holatlarda ularning asl ma'nosini qo'llangan bo'lib, ba'zi qismlarda ko'chma ma'nosida ishlatilgan. Quyidagi misollar "oyoq" so'zi bilan yasalgan somatizmlar bo'lib, ularni shunday tahlil qilamiz:

"Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog'mi o'zi? Mayli, oyoq-qo'lsiz bo'lsang ham, birov zambilda ko'tarib kelsayam jon derdim!"[1,43].

Bu parchada "qo'l-oyoqsiz" so'zi o'z ma'nosida qo'llangan bo'lib, ona o'g'lining har qanay holatiga qaramasdan uni qabul qilishga tayyorligini, urushdan joni sog'-salomat kelsa, shuni o'zi yetarli ekanligini shu so'zlar orqali ifodalab beryapti.

"Qor yog"ib turibdi-yu, dalada pishirib qo'yibdimi", deb oyoq tiraydiganlar ham topildi"[1,71]. Asarning bu qismida esa "oyoq tiramoq" somatizmi qo'llangan bo'lib, "qarshi bo'lmoq" yoki "norozi bo'lmoq" ma'nosida keladi. Agar oyoqni asl holatida ham tirab tursa, harakatlanish qiyin bo'ladi. Shu sababli ham "oyoq tiramoq" "xohishi yo'qlik" ma'nolarida ham qo'llaniladi.

"- Voy, man oyoq-qo'lidan bog'layotganim yo'q-ku, bobosi!"[1,138]. Oyoq-qo'li bog'langan inson, tabiiyki, hech qayerga harakat qilolmaydi. Ushbu parchada "qarshilik qilmaslik", "ushlab turmaslik" ma'nolarida qo'llanilgan.

O'tkir Hoshimov "yurak" somatizmlaridan ham oqilona tarzda foydalangan. Quyida ularning tahlillari bilan tanishamiz:

"Shundagina dadamning ko'ziga yurak betlab qaradim"[1,39]. "Yurak" elementi bilan yasalgan somatizmlar ko'pincha insonning hissiy holatiga bog'liq bo'ladi. Ular insonning nimalarini his qilishini ko'rsatib berishda ishlatiladi. "Yurak betlamoq" iborasi biror harakatni qilolmaslik, unga kuchi yetmaslik, qo'rqish kabi hissiyotlarni ifodalashda ishlatiladi.

Yozuvchi "yelka" bilan yasalgan somatik birikmalardan ham foydalangan.

"Oqsoqol dadamning yelkasiga qoqdi"[1,120]. Bu parchada "yelka" o'z ma'nosida ishlatilgan bo'lib, uning o'zbek madaniyatiga bog'liq ma'nosini namoyon bo'lgan. Ya'ni o'zbekcha urf-odatga ko'ra yelkadan qoqish "faxrlanish", "yashavor", "maqtash", "tasalli berish" ma'nolarini anglatadi.

“Paxtalik kiygan rangpar xotin bolaning ketidan yetib kelib, yelkasiga chang soldi”[1,158]. “Yelkaga chang solmoq” iborasi biror kishiga “tashlanmoq” yoki “otilmoq” ma’nosida keladi. Asarda keltirilgan parchada “hujum qilmoq” ma’nosida qo’llangan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, somatizmlar tilning madaniy boyligini oshirib beruvchi lug’atlar turiga kirib, uning qadimiy qatlamlaridan biri hisoblanar ekan. O’zbek tili somatik birikmalarga boy tillardan biri hisoblanib, bunday birikmalar nafaqat tilshunoslikda, balki adaiyotda ham keng qo’llanilb kelinyapti. Ularning asar mazmunini yanada kuchaytirib berishi, mazmuniy bo’yoq dorlik qo’shishi va o’quvchiga yanada ma’noliroq asarni yetkazib berishi somatizmlarning qanchalik ahamiyatli birikmalar ekanligini anglatib turadi. Shunday ekan, bunday birikmalar tilshunoslikda yanada chuqurroq tahlil qilinishi va lingvomadaniyat sohasida ham kengroq talqin qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”;
2. Gadoeva M.I. Features of connotative meaning of somatisms as part of phraseological units // *International Journal on Integrated Education*. Volume 3, Issue III, March, 2020. – P.73-78. (Impact Factor: SJIF 2020 – 5,712)
3. Gadoeva M.I. Lexico-semantic fields of “eye” in English and Uzbek languages // Academicia. An International multidisciplinary Research Journal. ISSN (online): 2249-7137. Vol. 11, Issue 10, October. <https://saarj.com> DOI NUMBER 10.5958/2249-7137.2021.02176.5. -India, 2021. – P.872-879. (Impact Factor: SJIF 2021 - 7.492)
4. Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN: 2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).
5. Gadoeva M.I. Expression of the somatizms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 – 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. –P.125-130. (JIF -7.223).
6. Gadoeva M.I. Lexico-semantic Classification of Somatisms in Phraseological Funds of English and Uzbek Languages // Eurasian Research Bulletin. Open Access, peer research journal. -Belgium, 2022. –V.4. –P.140-145. www.geniusjournals.org. (JIF – 7.995).
7. Gadoeva M.I. Significant features of somatic vocabulary // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2021. -№12. –B. 411-416. (10.00.00; №26)
8. Gadoeva M.I. Expression of somatizms in curses // Euroasian journal of research, development and innovation. Genius journals publishing group. Belgium, 2021. – P.30-33.
9. Gadoeva M.I. The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research. <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm>. –Sweden, 2021. – P. 36-41.
10. Gadoeva M.I. Polysemy of Somatizms in English and Uzbek Languages // International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technology’s. November 11th, <https://academiascience.org/>. –India. 2021, – P. 87-90.
11. Gadoeva M.I. Background analysis of somatic phraseological units in Uzbek // Proceeding of International Conference on Research Innovation In Multidisciplinary Sciences, Hosted From New York. www.econferenceglobe.com. –USA. 2021. –P. 297-300.



12. Gadoeva M.I. Interpretation of “head-bosh”, “foot-oyoq” and “heart-yurak (qalb)” in English and Uzbek languages // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference (11 November) ISSUE 5. – Copenhagen. 2021. – P.61-65.

64	"Zarbulmasal" asari so'z boyligidagi mavzuiy guruuhlar tahlili Ubaydullayeva Sh,.....	356
65	Paremiyalar lisoniy olam komponenti sifatida Umirzakov U.S,.....	360
66	Halima Ahmedova lirikasida badiiy-estetik tafakkur tadriji Xalova M.A,.....	368
67	Образование лексем с предметным значением в узбекском языке Богданович Г.Ф,Хамдамов Д.Д,.....	373
68	Lapar janrining genezisi xususida ba'zi mulohazalar Mardonova G.A,.....	377
69	Миф и мистическая реальность в художественной системе современной женской прозы россии Ибрагимова Н.М,.....	381
70	Epik qahramonning ijtimoiy hayoti va og'a-inichilik bilan aloqador motivlar Rahimova Sh.A,.....	387
71	Pamflet haqida ba'zi mulohazalar Yusupjanov E.U,.....	391
72	Rus tilidagi tugallanganlik va tugallanmaganlik fe'l kategoriyasining o'zbek tilida ifodalanishi Ruziyeva Z.M,.....	396
73	Temporal ma'noli so'zlarning inglizcha o'zbekcha tipologiyasi Samadova S.J,.....	402
74	К вопросу о референции экспрессивных и эмоциональных фразеосем Насирова Р.А,.....	407
75	Основные направления компьютерной лингвистики Мансурова Т.Т,.....	413
76	К вопросу о постмодернизме как категории литературы Хожиматова Н,.....	419
77	O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida somatik birikmalarining semantik tahlili Gadoyeva M.I, Murodova E,.....	424